

“SINF DAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA ANVAR OBIDJONNING HAYOTI VA
IJODINI O‘RGANISH”

Matyoqubova Fotima Urinbayevna

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

*Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmi maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, ularning turlari, bosqichlari va shakllari hamda o‘lmas asarlar ijodkori Anvar Obidjonning hayot ijodini o‘rganish ochiq dars shaklida bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari, sinf dars tizimi, konsepsiya, estetik tafakkur, ertaklar, asarni sahnalashtirish.*

Аннотация: *В данной научной статье описывается организация внеурочной деятельности, ее виды, этапы и формы, а также изучение жизни Анвара Обиджона, создателя бессмертных произведений, в форме открытого урока*

Ключевые слова: *Основные формы внеурочной деятельности, система классных занятий, концепция, эстетическое мышление, сказки, инсценировка произведения.*

Abstract: *In this scientific article, the organization of extracurricular activities, their types, stages and forms, as well as the study of the life of Anvar Obidjon, the creator of immortal works, are described in the form of an open lesson.*

Key words: *The main forms of extracurricular activities, the class lesson system, concept, aesthetic thinking, fairy tales, dramatization of the work.*

Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma‘naviyat va ma‘rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish va kamolga yetishga intilishiga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhimroqdir”⁶⁸. Avvalo so‘zimiz boshida bugun ta‘lim sohasidagi isloxlarni muhim jixatlari to‘g‘risida to‘xtalishimiz kerak. Ya‘ni 2020-2030 yilarga belgilangan Davlat ta‘lim sifatini oshirish yuzasidan konsepsiyalarni belgilangani va bu yuzasidan olib borilayotgan keng ko‘lamdagi ishlarmiz ham muhim ahamiyatga ega. “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunimiz”da belgilanganidek umumiy o‘rta ta‘limimizning quyi bosqichi hisoblangan boshlang‘ich sinflarda dars o‘tishni yangicha tusga kiritish asosiy vazifalarimizdan biridir. Sinfdan tashqari o‘qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishni, nutqni o‘stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go‘zalligi, tilning ifodaliligi, she‘riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta‘sir ham

ko'rsatadi.bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, ertaliklari, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslariniyosh avlodda o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdab ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak,desagina o'z xalqini munosib farzandi bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. "Uch og'ayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Egri va to'g'ri" kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi kerakligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Xalqimizning ma'naviy boyliklarini, jahon sivilizatsiyasi eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan eng muhim vazifasidir. Faqat shu asosdagina oldimizga qo'yilgan yuksak maqsadlar barchamiz uchun hayotimizning mazmuniga aylanib qolgandagina millatning ongli vatanparvarlik ruhini yuksaltirib, rivojlanayotgan mamlakatlar kabi taraqqiyot yo'lidan ildam qadam tashlash imkoni tug'ildi"⁶⁹,-deb ta'kidlagan edi."O'qish kitobi" dan o'rin olgan hamda sinfdan tashqari o'qish darslarida tavsiya etiladigan asarlar, o'quvchini fan bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, ularda tayanch hamda fanga oid kompetentsiyalarni, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishiga xizmat qiladi. Bu maqsad va vazifalarni asarni o'qish, syujeti bilan tanishish bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. Maktabda o'rgatiladigan har bir asar o'quv tahliliga tortilsa, o'quvchi yozuvchining maqsad-muddaosini anglasagina, undan chinakam bahra oladi, badiiy-estetik didi shakllanadi. Shunday ekan, "O'qish kitobi" darslarida o'quvchilarni badiiy asarni tahlil va talqin qilishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Asar tahlili davomida, eng avvalo, ularning janr xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir."O'qish kitobi" dan o'rin olgan hamda sinfdan tashqari o'qish darslarida tavsiya etiladigan asarlar, o'quvchini fan bo'yicha Davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, ularda tayanch hamda fanga oid kompetentsiyalarni, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishiga xizmat qiladi. Bu maqsad va vazifalarni asarni o'qish, syujeti bilan tanishish bilangina amalga oshirib bo'lmaydi. Maktabda o'rgatiladigan har bir asar o'quv tahliliga tortilsa, o'quvchi yozuvchining maqsad-muddaosini anglasagina, undan chinakam bahra oladi, badiiy-estetik didi shakllanadi. Shunday ekan, "O'qish kitobi" darslarida o'quvchilarni badiiy asarni tahlil va talqin qilishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Asar tahlili

davomida, eng avvalo, ularning janr xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa bolalar she`riyatini sinfdan tashqari o`qish jarayonida tahlil qilish o`quvchilar ma`naviy olamini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Bolalarda kitobxonlik ko`nikmalarini rivojlantirishda ham bolalarni she`rlar bilan oshno etish maqsadga muvofiq sanaladi. O`zbek bolalar adabiyotida turkum she`rlar eng ko`p Anvar Obidjon ijodida uchrasa ajab emas. “G`alati maktublar”, “Siz eshitmagan qo`shiqlar”, “Ajoyibxona”, “Oltiariqdan olti ertak”, “Botirvoyning kundaligi”, “Bulbulning cho`pchaklari” kabi turkumlar tarkibidagi she`rlar o`zining ohoriy topilmalari, bolalarbop sodda, samimiy yumorgaboyligi, misralarning qisqa, ravon, o`ynoqiligi, kichkintoylarni o`ylashga majbur qiladigan ikki yoki undan ortiq yechimga ega “jumboq” — masalalari bilan siz-u bizga yaxshi tanish. Shunisi e`tiborliki, garchi muayyan mavzuda yozilgan bo`lsa-da, bir turkumdagi she`r mazmunan ikkinchisini aslo takrorlamaydi, aksincha, har bir turkum uchun o`ziga xos mavzu, shakl, til va uslub tanlangan. Masalan, “Bulbulning cho`pchaklari” turkumida yosh kitobxonida aruz vazniga muhabbat uyg`otish maqsad qilib olingani holda g`azal shaklidagi she`rlar Bulbul tilidan kuylanadi. “Ignalarim chiroyli” turkumida esa turli jonzotlarning tarjimai holi orqali tabiatning boshqa a`zolariga nisbatan hurmat, mehribonlik, xayrixohlik hissini yanada oshirish maqsad qilinadi. Biz so`z yuritmoqchi bo`layotgan “Dalalardan — bolalarga” turkumi boshlanmasida shoir o`quvchi ko`z o`ngida mohi jurnalist sifatida namoyon bo`ladi: “Ochig`ini aytsam, she`rlarni shunchaki havas uchun yozaman. Aslida kasbim — jurnalistlik. Bir paytlar radio muxbiri edim. Mikrofonni Alpomishning qilichidek yalang`ochlab olib, o`zi azaldan so`zamol odamlarni gapirtirish ham ish bo`ptimi, deguvchilarning fikriga to`la to`kis qo`shilaman. Ammo mening yutug`im shundaki, dala-bog`larni kezib yurgan paytlarimda nafaqat odamlardan, balki turli ekin va dov-daraxtlardan ham o`nlab intervyular olishga Musharraf bo`lganman. Bu hol jumlayi jahonning og`zi, ko`zi, qulog`i va burni hisoblanmish jurnalistlar toifasini hayratga solsa, ajabmas”. Sarlavhadan keyin berilgan interpretatsiya mazmunidagi qisqa kirish so`z, bir tomondan, turkum tarkibidagi she`rlarni marjon shodasiday bir mavzu atrofida birlashtirsa, ikkinchi tomondan, yosh kitobxonni o`qilajak she`rga ruhan tayyorlash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari ijodkor o`zbek bolalar she`riyatiga nozik piching (kesatiq) she`rlarni olib kirgan muallif. Bu, ayniqsa, uning “Siz eshitmagan qo`shiqlar” turkumida yaqqol aks etgan. She`rlar ham shaklan, ham mazmunan farqlanib turadi. Shakldagi kashfiyot — tovushlarga taqlid, mazmun yangiligi esa har bir she`r tag ma`nosini boyitishga mo`ljallangan. Ammo shu bilan birga ular axloqiy-psixologik mezon sifatida inson qiyofasini to`ldirishga yordam beradi:

Shippak qo`shig`i:

Yuraman uy ichida,

Ship-ship-ship.

Gilam yumshoq-ey juda,

Ship-ship-ship.

Turtinmayman men toshga,
Ship-ship-ship.
Ekin zorman quyoshga,
Ship-ship-ship.

Shuningdek, muallif tovushlar o'zgarishini (taqlidiy so'zlarni) ham mohirona qo'llab, tasviriylikka erishadi (jiqirjiqir, qiqir-qiqir, dikir-dikir, pichir-pichir, shitir-shitir kabi). Bu turkum she'rlar qo'shiqlar deb atalishi ham bejiz emas, chunki ular ohangdor. Turkumdagi ashula ijrochilari obrazlarida bolalar va kattalar xarakterlarini ilg'ab olish qiyin emas. She'rlar sodda, lekin bir nafasda o'qiladi. Shoir so'zlarni nihoyatda tejab ishlatadi. Yengil yumor esa hayot haqiqati bilan qorishib, o'quvchida hissiy- g'oyaviy ta'sirni yanada orttiradi. Muallif allegorik obrazlarni naqadar jonlantira olishiga bir misol: Tanishing, men birinchi "B" sinfi da o'qiyman, O'ttiz beshta harfning barin yaxshi cho'qiyman. Nega bizlar dumsiz X yozdik xo'roz deganda? Voy domlajon, sizningcha xo'roz dumsiz ekan-da! Shoir hayvon va predmetlarni jonlantirib, ularga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib beradi. Predmetlarning o'ziga xos xususiyatlarini, odamga xos "fazilat" va "nuqson"larini to'g'ri topadi. Mana, masalan, qo'raning qumg'onga yozgan xati. Qumg'on bilan hamma salomlashadi. Choynak esa burnini osmonga ko'tarib turadi. Qo'ra qumg'onga shunday maktub yozadi:

Kuyib-pishib o'choqda,
Qaynatasan sen suvni,
Likopchaga o'tqazib

Hurmatlashar u quvni. Shoir o'xshatishlarni ishlatganda ham bola ruhiyatini sira unutmaydi, biror hodisa yoki harakatni tushuntirish uchun uni tanish harakat yoki holatga o'xshatadi. Ma'lum obraz orqali o'quvchilarga ma'naviyatning ilk saboqlarini beradi. Sevimli bolalar shoiri Anvar Obidjonning har bir satri muayyan tarbiyaviy mazmun tashiydi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi. Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik saboqlari 1-sinfda haftada 1 marta saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi. 2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfdan 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi

o'tkaziladi. Ona – Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi. 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, ertaliklari, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodda o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desagina o'z xalqini munosib farzandi bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. "Uch og'ayni botirlar", "Zumrad va Qimmat", "Egri va to'g'ri" kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi kerakligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar. "Ur to'qmoq" ertagining bola karakterining shakllanishida alohida o'rni bor: ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga yomon bo'lish kerak degan muhim qoidani o'rta tashlaydi. Haqiqatan ham xalqning "Qayna xumcha", "Ochil dasturxon"larini zo'ravonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan "Ur to'qmoq"larni ishlatish zarurligini uqtiradi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o'qishga o'tadilar. Bunda asosan o'qituvchi o'quvchilarni maktab kutubxonasiga, 3-4 sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradi. Shuningdek bolalar gazeta va jurnallari

ham o'quvchilarga ertak, hikoyalar o'qishga yordam beradi. Sinfdan tashqari o'qish, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usuli. Demak maktab kutubxonasi, bolalar gazeta va jurnallari bilan hamkorlik qilishdir. Sinfdan va sinfdan tashqari o'qish boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha predmet dasturlarining bolimlari bilan bevosita bog'liq. O'z navbatida grammatika va to'g'ri yozuv, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, musiqani o'rganishda olingan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar o'qish darslaridan o'qish darslarida foydalaniladi. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o'quvchini ijod qilishga undaydi. Har bir sinfdan sinfdan tashqari o'qilgan barcha asrlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nitqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar ifodali, obrazli, shuningdek qahramonlar harakatini to'g'ri bajarishlari, o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Q. Muhammadiy, P. Mo'min, Z. Diyor, A. Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta xalq og'zaki ijodini yaqindan o'qishi lozim. Ertaklar- yaxshilikka yetaklar deganlariday o'quvchi ettaklar bilan tanishar ekan mard, jasur vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi. Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni bilgan holda aqlan yetuk, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash biz murabbiylar, ustozlar zimmasidadir. Shunday ekan mashaqqatli ammo sharafli kasbimizni sidqidildan bajarishda izlanuvchan ijodkor bo'lishimiz zarurdir. Chunki yurtboshimiz aytganlaridek "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart". Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan

tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, ovqigan kitobiga munosabat bildirilishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali ovqib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar. Sinfdan tashqari o'qishning bosqichiari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishiari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilishi hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, „Ertaklar bayrami“, „Ifodali o'qish tanlovi“ o'tkaziladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o'quvchini ijod qilishga undaydi. Har bir sinfda sinfdan tashqari o'qilgan barcha asarlarni o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchilarning diqqatlarini oshirib xotiralarida saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama kasbga yo'naltiradi, ya'ni axtiyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suhandonlik, rejissorlik kabi kasblarga nisbatan ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilarni ifodali kitob o'qishlari, o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlar bilan tanishtirib borishi lozim. Q. Muhammadiy, P. Mo'min, Z. Diyor, A. Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishlari kerak. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish, asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirish, yorqin obrazlar yaratish bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Maktab o'quvchini o'qish malakasi bilan qurollantirish bilan birqatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, ma'lum birmavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va jurnallarni ham mustaqil

o'qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o'qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, ko'p narsani bilishga havasni oittiradi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilarni kitobga, badiiy asarlarga qiziqishini uyg'otish maqsadida, ularni ongli kitobxonlar bo'lib yetishishlari uchun turli janrdagi asarlar bilan tanishtirib boriladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olibboriladi. O'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o'tadilar. Bunga asosan o'qituvchi o'quvchilar bilan maktab kutubxonasiga, 3-4- sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boraradi. Shuningdek bolalar gazeta va jurnallari ham o'quvchilarga ertak, hikoyalar o'qishga yordam beradi. Xalqimizning tarixi, uning urf-odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari, barcha orzu istaklari yillar davomida yaratilgan ertaklarida saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodlarda, izlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bolalar qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladilar. O'quvchilar yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak desalargina o'z xalqini munosib farzandlari bo'la oladilar. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafi tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Ertak bolalarda personajlarning xatti - harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy fazilatlarni tarbiyalashda ham ertaklardan foydalanish eng yaxshi usuldir. Chunki bolalar ertaklarni sevadilar, katta qiziqish bilan tinglaydilar, ertak qahramonlariga o'xshagilari keladi. O'zlari yoqtirgan qahramonlarga o'xshashni xohlagan bolajonlar albatta bu qahramonlarning yaxshi xulq-atvorlariga, mard va jasurligiga, aqlli vafarosatliligiga, mehnatkash va uddanburonligiga ham ahamiyat beradilar, bu fazilatlarni o'zlarida tarbiyalashga harakat qiladilar.

Sinfdan tashqari o'qish darslari, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfdan va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o'quvchini ijod qilishga undaydi. Har bir sinfdan sinfdan tashqari o'qilgan barcha asarlarni o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini

oshirishga yordam beradi. Shungdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchilarning diqqatlarini oshirib xotiralarida saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama kasbga yo'naltiradi, ya'ni aktiyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suhandonlik, rejissorlik kabi kasblarga nisbatan ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. Ma'naviyat. 2008-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.- Toshkent: "o'zbekiston", 2017, 1-tom
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.
4. Afzalov M., Rasulov X., Husanov Z. O'zbek xalq ertaklari. - T.: 1963.
5. Aql bilan davlat. Xalq ertaklari to'plam. - T.: O'qituvchi, 1995.
6. Jumaboyev M. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. - T., 1996.
7. Jumaboyev M. Kichkintoylarning katta adabiyoti. - T., 2002.